



TURKIYA VA O'ZBEKISTON MAKTABLARIDA KELISHIK QO'SHIMCHALARINI O'QITISH YONDASHUVLARINING LINGVODIDAKTIK ASOSLARI

Tursunbayeva Zuxra Normatovna

SamDPI magistranti

Annotatsiya: Mazkur maqolada Turkiya va O'zbekiston ta'lim tizimlarida kelishik qo'shimchalarini o'qitishning metodik va mazmuniy xususiyatlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqotda har ikki mamlakatning umumta'lim maktablari uchun mo'ljallangan ona tili va turk tili fanlari o'quv dasturlariga tayanilgan holda, kelishik qo'shimchalarining qaysi sinflarda va qanday yondashuv asosida o'rgatilishi aniqlanadi. Tahlil natijalariga ko'ra, Turkiyada kelishik qo'shimchalari boshlang'ich sinflarda tizimli grammatik mavzu sifatida berilmasdan, ularning ongli ravshda 6-sinf dan o'rgatiladi. O'zbekistonda esa mazkur grammatik kategoriya 3-4-sinflardan oq mustaqil mavzu sifatida kiritilib, keyingi sinflarda izchil ravishda chuqurlashtirib borilishi ko'rsatib beriladi. Maqolada ikki yondashuvning lingvodidaktik asoslari ochib berilib, ularning afzallik va cheklovlari ilmiy asosda baholanadi.

Kalit so'zlar: kelishik qo'shimchalari, lingvodidaktika, ona tili ta'limi, turk tili, o'quv dasturi, grammatika, metodika, maktab

KIRISH

Bugungi globallashuv sharoitida til ta'limi nafaqat kommunikativ kompetensiyani shakllantirish, balki o'quvchilarda til tizimi haqidagi ilmiy tasavvurlarni rivojlantirishni ham taqozo etmoqda. Grammatik kategoriyalar, xususan, kelishik qo'shimchalari tilning morfologik va sintaktik tizimida muhim o'rin tutib, so'zlar o'rtasidagi grammatik munosabatlarni ifodalashda asosiy vosita hisoblanadi. Shu bois kelishik qo'shimchalarini o'qitish masalasi til ta'limi metodikasining dolzarb muammolaridan biri sanaladi.

Turkiya va O'zbekiston umumta'lim maktablari o'xshash va farqli jihatlari talaygina. Grammatik kategoriyalarni taqdim etish tamoyillari va bosqichlari jihatidan bir-biridan farqlanadi. Ayniqsa, kelishik qo'shimchalarini qaysi sinfdan boshlab va qanday metodik yondashuv asosida o'rgatish masalasida ikki mamlakat tajribasi o'rtasida sezilarli tafovutlar mavjud.

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi tomonidan tasdiqlangan umumta'lim maktablarining "Ona tili" fani o'quv dasturlarida grammatik mavzular boshlang'ich sinflardan boshlab bosqichma-bosqich o'tilishi ko'rsatilgan. 1-4-sinflar bosqichida o'quvchilarga til birliklari haqidagi dastlabki tushunchalar berilib, so'z turkumlari va ularning grammatik shakllari bilan elementar tanishtirish amalga oshiriladi. Bu jarayonda kelishik qo'shimchalari soddalashtirilgan holda, asosan amaliy misollar asosida o'rgatiladi. Maktabning 3-4-sinf "Ona tili" darsliklarida otning kelishiklari mavzusi mustaqil bo'lim sifatida kiritilib, kelishik qo'shimchalari (bosh,



qaratqich, tushum, jo'nalish, o'rin-payt, chiqish kelishiklari) nomlari, savollari va asosiy vazifalari bilan tanishtiriladi. Bu bosqichda nazariy chuqurlikdan ko'ra, o'quvchilarning to'g'ri nutq tuzish ko'nikmasini shakllantirish maqsad qilib olinadi. 5-6-sinflarda otlarning grammatik kategoriyalari doirasida kelishiklar mavzusi kengaytiriladi, ularning sintaktik vazifalari va nutqdagi funksional imkoniyatlari tahlil qilinadi. 7-9-sinflarda esa kelishik qo'shimchalari gap bo'laklari, so'z birikmalari va sintaktik tuzilma bilan bog'liq holda chuqurlashtirib o'rganiladi. Demak, O'zbekiston ta'lim tizimi ona tili darsliklarida kelishik qo'shimchalari boshlang'ich ta'lim bosqichidayoq mustaqil grammatik mavzu sifatida kiritilib, keyingi sinflarda izchil ravishda murakkablashtirib boriladi. 4-sinf Ona tili fanidan taqvim-mavzu reja bo'yicha darslar haftasiga 4 soat, (jami 136 soatlik yillik) ta'lim dasturi rejalashtirilgan. Kelishiklar mavzusi uchun ajratilgan soatlarga (2025/2026-o'quv yiliga mo'ljallangan) ko'ra, kelishiklar mavzusi II chorakda o'tiladi. Ular quyudagi tartibda berilgan:

Otlarning kelishik qo'shimchalari bilan qo'llanilishi — 1 soat;

Bosh kelishik — 2 soat, qaratqich kelishigi — 2 soat;

Tushum kelishigi — 2 soat;

Jo'nalish kelishigi — 2 soat;

O'rin-payt kelishigi — 2 soat;

Chiqish kelishigi — 2 soat;

Kelishiklarni mustahkamlash — 2 soat o'tiladi.

Jami kelishiklar mavzusiga ajratilgan soatlar: II chorakda kelishiklar 15 soat o'tiladi.

Turkiya Respublikasi Milliy ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan 1-4-sinflar uchun mo'ljallangan "Turk tili" o'quv dasturlarida grammatik mavzular tizimli va nazariy tilshunoslik darajasida berilmaydi. O'quv dasturlarida 4-sinf o'quvchilari uchun "Türkçe /Ona tili" darsi haftasiga 8 soat dars beriladi. Bu ona tilining umumiy soatidir. Lekin bu soatlar ichida qaysi mavzu necha soat ajratilishi aniq rasmiy jadvalda alohida ko'rsatilmaydi.

Mazkur bosqichda ta'lim jarayoni, asosan, o'quvchilarda asosiy nutqiy kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan bo'lib, o'qish, yozish, tinglab tushunish va gapirish ko'nikmalari ustuvor hisoblanadi. Shu sababli kelishik qo'shimchalari kabi murakkab grammatik tushunchalar boshlang'ich ta'lim bosqichida mustaqil va konseptual mavzu sifatida kiritilmagan.

Shu bilan birga, ayrim mahalliy manbalar va qo'shimcha o'quv materiallarida, xususan, 4-sinf darajasiga mo'ljallangan dars ishlanmalari va internet platformalarida kelishik qo'shimchalariga oid sodda tushuntirishlar uchrab turadi. Bunday materiallarda ko'proq o'quvchilarning til hodisalariga nisbatan umumiy xabardorligini oshirish ko'zda tutiladi. Biroq bu kabi resurslar Turkiya Respublikasi Milliy ta'lim vazirligining rasmiy o'quv dasturida majburiy o'quv natijasi sifatida belgilangan emas.

Turkiyada kelishik qo'shimchalarining tizimli va ongli ravishda o'qitilishi o'rta maktab bosqichida amalga oshiriladi. 6-sinf "Turk tili" fani o'quv dasturida "so'z



o'zgartiruvchi qo'shimchalarning vazifalarini farqlaydi" mazmunidagi kompetensiya belgilangan bo'lib, uning doirasida otlarning grammatik shakllari — ko'plik qo'shimchasi, kelishik qo'shimchalari, egalik qo'shimchalari hamda so'roq qo'shimchasi o'rganiladi. Demak, rasmiy dasturga muvofiq, kelishik qo'shimchalari Turkiyada ilk bor 6-sinfda mustaqil va rejalashtirilgan grammatik mavzu sifatida o'qitila boshlaydi.

Turkiya va O'zbekiston ta'lim tizimlarida kelishik qo'shimchalarini o'qitishning qiyosiy tahlili

Turkiya va O'zbekiston ta'lim tizimlarida kelishik qo'shimchalarini o'qitish yondashuvlari mazmun va metodika jihatidan sezilarli darajada farqlanadi. Bu farq, avvalo, boshlang'ich ta'lim bosqichining lingvodidaktik vazifalarini belgilashda namoyon bo'ladi.

Turkiyada 1-4-sinflarda til ta'limining asosiy e'tibori kommunikativ kompetensiyani shakllantirishga qaratilgan bo'lib, grammatik tushunchalar tizimli va nazariy shaklda berilmaydi. Kelishik qo'shimchalari boshlang'ich ta'limda mustaqil mavzu sifatida kiritilmaydi, balki o'quvchilarning tabiiy nutq tajribasi doirasida bilvosita shakllanadi. Ularning ongli va tizimli o'rganilishi faqat 6-sinf dan boshlanadi. Bu yondashuvda grammatika nutqiy faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida talqin etiladi.

O'zbekistonda esa til ta'limi boshlang'ich sinflardan oq grammatik kompetensiyani shakllantirish bilan uyg'un holda olib boriladi. Kelishik qo'shimchalari 4-sinf dayoq mustaqil mavzu sifatida o'rgatiladi va o'quvchilarga ularning nomlari, savollari hamda asosiy vazifalari tanishtiriladi. Keyingi sinflarda esa mazkur mavzu izchil ravishda murakkablashtirilib, sintaktik va uslubiy jihatlar bilan boyitiladi. Bu yondashuvda grammatika til tizimini anglashning asosiy vositasi sifatida qaraladi.

Shunday qilib, Turkiya ta'lim modelida kelishik qo'shimchalarini o'rganish kechiktirilgan va kommunikativ yo'nalishga bo'ysundirilgan bo'lsa, O'zbekiston ta'lim modelida mazkur grammatik kategoriya erta bosqichdan tizimli ravishda shakllantiriladi. Har ikki yondashuvning ham o'ziga xos afzalliklari mavjud: Turkiya modelida nutqiy erkinlik va tabiiylik ustuvor bo'lsa, O'zbekiston modelida grammatik aniqlik va tizimlilik yetakchi o'rin egallaydi. Bu farqlar ikki mamlakatda til ta'limining metodologik asoslari turlicha ekanini yaqqol namoyon etadi..

Xulosa

Mazkur maqola Turkiya va O'zbekiston ta'lim tizimlarida kelishik qo'shimchalarini o'qitish yondashuvlari o'rtasida muhim metodik farqlar mavjud ekanini ko'rsatdi. Qiyosiy tahlil natijalari shuni tasdiqlaydiki, Turkiyada til ta'limi asosan kommunikativ yondashuvga asoslanib, grammatik kategoriyalar, jumladan, kelishik qo'shimchalari ham nutqiy faoliyatni qo'llab-quvvatlovchi vosita sifatida talqin etiladi. Shu sababli bu mavzuning tizimli va ongli o'rganilishi o'rta maktab bosqichiga, ya'ni 6-sinf ga qoldirilgan.

O'zbekiston ta'lim tizimida esa grammatik bilimlarni erta bosqichdan shakllantirish ustuvor yo'nalish sifatida qaraladi. Kelishik qo'shimchalari boshlang'ich



sinflardanoq mustaqil mavzu sifatida o'qitilib, o'quchilarda til tizimi haqidagi dastlabki ilmiy tasavvurlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Keyingi sinflarda mazkur mavzu sintaktik va uslubiy jihatlar bilan boyitilib, izchil ravishda chuqurlashtirib boriladi.

Har ikki yondashuvning lingvodidaktik jihatdan o'ziga xos afzalliklari mavjud. Turkiya modeli o'quvchilarda erkin nutqiy faoliyatni rivojlantirishga xizmat qilsa, O'zbekiston modeli grammatik aniqlik va tizimlilikni ta'minlashga yo'naltirilgan. Shu nuqtayi nazardan, har ikki tajribani o'zaro uyg'unlashtirish til ta'limi samaradorligini oshirishda muhim ilmiy-metodik asos bo'lib xizmat qilishi mumkin.

Mazkur tadqiqot natijalari turkiy tillarni o'qitish metodikasini takomillashtirish, xususan, grammatik kategoriyalarni bosqichma-bosqich o'rgatish masalasida nazariy va amaliy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi. Ona tili fani bo'yicha davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi. Toshkent, 2021.
2. Türkiye Cumhuriyeti Millî Eğitim Bakanlığı. Türkçe Dersi Öğretim Programı (İlkokul ve Ortaokul 1-8. Sınıflar). Ankara, 2019.
3. G'ulomov, A., Ne'matov, H. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Morfologiya. Toshkent: Fan, 2004.
4. Ergin, M. Türk Dil Bilgisi. İstanbul: Bayrak Yayınları, 2013.
5. Karaağaç, G. Türkçenin Dil Bilgisi. Ankara: Akçağ Yayınları, 2012.
6. Rahmatullayev, Sh. Hozirgi o'zbek tili. Toshkent: Universitet, 2006.
7. Demirel, Ö. Türkçe Öğretimi. Ankara: Pegem Akademi, 2010.
8. Karimov, B. Ona tili o'qitish metodikasi. Toshkent: O'qituvchi, 2018.
9. H.Kaftan, Ü.Arslan, N.Yilmaz. Türkçe Ders Kitabı. Ankara: Devlet kitapları, 2019.